

## O'QUVCHILAR EKOLOGIK MADANIYATINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH

**Nasimov Doston Sobir o'g'li, JDPU, magistr**

**Annotasiya:** Maqolada ekologik madaniyat, o'quvchilarni ekologik madaniyatga o'rgatish, ekologik madaniyatni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik asoslari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** ekologiya, madaniyat, o'quvchi, o'qituvchi, texnologiya, raqamli texnologiyalar, atrof-muhit, ta'lim, tarbiya, kasb-hunar, o'yinlar.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar shu jamiyatda yashayotgan har bir insonni o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara oladigan erkin, ijodkor shaxs sifatida tarbiyalashga yo'naltirilgan

Bugungi kunda mamlakatimiz kelajagi ko'p jihatdan barkamol avlodni shakllantirishga bog'liq. Bu jarayon ta'lim-tarbiya ishlarini qanday yo'lga qo'yishimizga bog'liq. Shu bois, Respublikamizda qabul qilingan yangi taxrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda hamda ta'limni isloh qilish borasidagi boshqa meyoriy hujjatlarda ta'lim tizimini isloh qilish va shu asosida jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk, salohiyatli barkamol avlodni shakllantirish zarurligi alohida takidlangan.

Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy boyliklardan tejamkorlik bilan foydalanish shu kunning eng muhim ekologik muammosi hisoblanadi va bu muammo hamma aholi hamda ular yashayotgan davlatlar manfaatini o'z ichiga qamrab oladi.

O'quvchilarning ekologik madaniyatini rivojlantirish masalalari bo'yicha xorijiy davlatlar olimlaridan F.Gilbert, J.Raven, R.Uayt, D.Xayms, N.Xomskiy, E.S.Polat kabi olimlarning ishlarida tadqiq qilingan.

O'quvchilarni ekologik madaniyatini, ularni maktab davridan kasb tanlashga o'rgatish masalalari bo'yicha MDH olimlaridan Y.P.Akmaeva, E.V.Baranova, A.A.Budantsova, T.E.Bikovskaya, R.D.Gataullina, A.V.Faizova, G.G.Xasanova, E.V.Peshova, A.I.Ancut, T.Yu.Gushchinalar va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan.

Adabiyotlarning nazariy tahlillaridan ayon bo'lishicha, Respublikamizda bu borada tadqiqot olib borayotgan olimlarning aksariyati o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishga ularning aqliy salohiyatini rivojlantirish orqali yondashadilar.

O'quvchining ijodiy faoliyati esa aynan uning faoliyati jarayonida: o'z-o'zini rivojlantirish;

- o'quv faoliyatining ilg'or texnologiyalar asosida qurilishi;
- o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikning qaror topishi;
- o'quv faoliyatining o'quvchilar ichki motiviga asoslangan holda izlanuvchanlik yo'nalishini kasb etishi orqali o'z ifodasini topadi.

Lekin bu borada shu paytgacha ilmiy tadqiqot ishlari yetarlicha olib borilmaganligi bizning tadqiqot mavzumizni dolzarbligini asoslaydi.

Bugungi kunda fanlarni o'qitishda jahon tajribalaridan foydalanish davr talabi hisoblanadi. Shu o'rinda xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik, Raqamli texnologiyalar vositasida fanlarni o'qitishni yo'lga qo'yish muhim hisoblanadi.

Hozirgi zamon ekologiya muammolarini fan-texnika yutuqlari asosida hal qilish jarayonida, biologiya, zoologiya (ekologiya) fani, uning yo'nalishlari, jamiyat va tabiat o'rtasidagi ziddiyatlarni hal qilishdagi imkoniyatlari muhim omil hisoblanadi. Ekologik tanglik va halokatlarning oldini olishda, jamiyat va tabiat o'rtasidagi ekologik ziddiyatlarni hal etishda ekologiya fanining so'nggi yillarda erishgan yutuqlarini amaliyotda qo'llash katta ahamiyatga ega.

Maktab o'quvchilarini ekologik madaniyatini turli o'quv fanlari bilan uyg'unlashtirish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Buning uchun:

- turli o'quv fanlari, fan to'garaklari va sinfdan hamda maktabdan tashqari tadbirlarning imkoniyatlaridan unumli foydalanish;
- o'quvchilarning muayyan maqsadga yo'naltirilgan ijtimoiy ahamiyatlilik darajasi yuqori bo'lgan o'quv topshiriqlarini bajarishlarini ta'minlash
- jamiyat hayoti uchun ahamiyatli bo'lgan mehnat va kasb-hunarning turli sohalariga o'quvchilarning qiziqishlarini tabaqalashtirilgan yondashuv asosida shakllantirishga erishish
- texnologik bilimlar, umummehnat va kasbiy ko'nikmalar yordamida
- o'quvchilarni kasbga yo'naltirish orqali ijtimoiylashtirishga erishish
- o'quvchilarni munosib kasb-hunarga yo'naltirish maqsadida, maktab o'qituvchilari, firmalar, ishlab chiqarish korxonalari, ijodiy jamoalar, kasb-hunar kollejlari hamda tashxis markazlari hamkorligini yo'lga qo'yish.

Qo'shimcha ta'lim muassasasi ekologiya sohasida o'quvchilarga yuqori darajada ta'lim va tarbiya berish uchun ekologik ta'limning innovatsion shakllari va texnologiyalarini izlash zarur. Ekologik ta'lim sohasida yangilik izlash quyidagi mezonlarga asoslanadi:

- tarbiya sohasida ekologik ta'limning samarasizligi;
- Ta'limni o'qitish texnologiyalaridan o'quv ishlariga chuqurroq e'tibor berishga yo'naltirish, bunda muhim mezon -atrof-muhit va jamiyat bilan bog'liq kundalik xatti-harakatlar, harakatlar;
- Ta'lim paradigmasining o'zgarishi, asosiy e'tiborni "Hayot uchun ta'lim" dan "Butun hayot davomida ta'lim" ga almashtirish; Bolalar uchun qo'shimcha ekologik ta'lim tizimida bir nechta innovatsion yo'nalishlarni ajratish mumkin:
- ekologik ta'lim mazmunini takomillashtirish;
- o'quv jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni o'rganish va joriy etish;
- ekologiya, biologiya sohasida xayriya qilingan bolalar bilan ishlash tizimini yaratish;
- ekologik ta'lim va tarbiyani tashkiliy-uslubiy ta'minlashning yangi shakllarini ishlab chiqish va amalga oshirishda boshqaruv tizimini takomillashtirish;
- ta'lim jarayonini axborotlashtirish.

Qo'shimcha ta'lim muassasasi iloji boricha ko'proq innovatsion yo'nalishlarni rivojlanishi uchun ekologik ta'lim sohasida eng istiqbolli innovatsion manbalarni topish va ulardan foydalanish zarur.

Ma'lumki, maktab o'quvchisi kattalarning xatti-harakatini taqlid qilishga qiziqadi. Bunda ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan ishbop o'yinlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Bolalarga mo'ljallangan ishbop o'yinlar takrorlash, mustahkamlash, o'tilganlarning qay darajada o'rganilganligini (diktantlar, musobaqalar, krossvordlar, sirtqi sayohatlar, rolli o'yinlar, dramatik sahnalar tarzida) aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Ishbop o'yinlarni hayotiy vazifalarni imitatsiya va modellashtirish asosida tashkil etish samarali natijalarga olib keladi. Bunday o'yinlar faqat bilishga oid bo'lmay, dunyoqarashni kengaytirish, hamda hissiy ta'sir etishi bilan ham xarakterlidir.

Masalan, o'quvchilarda "Nima uchun?", «Baliq skeleti», «Kaskad», «Qanday?» kabi innovatsion metodlardan foydalanganda biz asosan ularni ishbop o'yinlar tariqasida o'tkazishga harakat qildik va natijada o'quvchilarni kasb tanlash faoliyati rivojlanganligining guvohi bo'ldik.

Ishbilarmonlik o'yinlar keng tarqalgan o'yin metodlaridan bo'lib, ular mohiyati jihatdan ma'lum obrazlarga kirish, o'sha obrazga xos bo'lgan hissiyotlarni o'z boshidan kechirishni taqozo etadi. Shunday qilib ishbilarmonlik o'yinlari qo'llash sohalari nihoyatda ko'p. O'quv maqsadlarida kompyuterdan foydalangan holda qo'llaniladigan ishbilarmonlik o'yinlari o'quvchilarning hayotida to'g'ri mavqega ega bo'lishlari, o'zi istagan, orzu qilgan hayotiy vaziyatlarni yaratishga o'rgatadi va undaydi, eng asosiysi ishlab chiqarish jarayonida o'zini erkin muloqotga oson kirishuvchi shaxs, bilimdon mutaxassis sifatida namoyon qilishga zamin yaratadi.

Tayyorlanish bosqichida boshlang'ich sinf o'quvchilari har xil holatli masalalarni yechishning nazariy asoslarini o'rganadilar. Obyekt sifatida o'yin modeli, o'yin holatlari ishtirokchilari majburiyatlari, o'yin o'tkazish tartib va qoidalar hamda o'quvchilari bilimni baholash tizimi bilan tanishiladi. Ko'rgazmali qurollar, kerakli ko'rsatmali materiallar dars uchun tayyorlanadi. Ayrim masalalar mustaqil o'rganiladi.

### **Tajriba-sinov o'tkazilgan ta'lim muassasasi bo'yicha umumiy natijalar**

<b>Umumta'lim muassasasi</b>	<b>Ko'rsatkichi</b>	<b>Tajriba-sinov sinflari</b>	<b>Nazorat sinflari</b>
------------------------------	---------------------	-------------------------------	-------------------------

		Tajriba boshida o'quvchi soni	%	Tajriba oxirida o'quvchilar soni	%	Tajriba boshida o'quvchilar soni	%	Tajriba oxirida o'quvchilar soni	%
<b>6-maktab</b>	A'lo	5	11,9	11	26,2	6	14,6	6	14,6
	Yahshi	11	26,2	21	50	11	26,8	13	31,7
	Qoniqarli	26	61,9	10	23,8	24	58,5	22	53,7

Tadqiqotimiz natijasida, tajriba-sinov maydonchasi sifatida tanlab ta'lim muassasasida, tajriba sinifidagi o'quvchilarning kreativ faoliyatini rivojlanganlik darajalarining samaradorlik ko'rsatkichi 1.1 barobarga, o'rtacha o'zlashtirish koeffitsienti 12.3 % ga yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa olib borilgan tadqiqot ishining samarali ekanligini ko'rsatadi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Tuxtaev A. Ekologiya. – Toshkent: Uqituvchi, 1988.
2. Shodimetov Yu. Ijtimoiy ekologiyaga kirish. – Toshkent: Uqituvchi, 1996
3. Dostходжаева Р.И. Экология. Маърузалар матни. – Toshkent: TFI, 2006.
4. Мурадов Ш.О., Холбаев Б.М., Отакулов У.Х., Дониёв Х.Ш. Саидов Ш.Э. Экология (мини дарслик). – Қарши: НТПЦ “Ойкос”, 2005.
5. Радкевич В.А. Экология: Учебник. / Радкевич В.А.– 3-е изд., переработано и дополнено – М.: Высшая Школа, 1997. – 354 с.
6. Киселёв В.Н., Основы экологии: Учебное пособие / В.Н. Киселев– МН.: 1998.
7. Qodirova, M., & Rahmonov, A. (2023). O'SMIRLARGA XOS NIZOLI VAZIYATLAR VA ULARNING PSIXOLOGIK TAHLILI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 3(2). извлечено от <https://phys-tech.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8465>
8. Qodirova, M., & Nasimov, D. (2023). PSIXOLOGIYADA QO'RQUV MUAMMOSINING ILMIY TADQIQ ETILISHI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 3(1). извлечено от <https://phys-tech.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7725>

- 9.Qodirova, M. (2023). DEVELOPMENT OF COGNITIVE ACTIVITY OF PRESCHOOL CHILDREN. *Science and innovation*, 2(B4), 258-261.
- 10.Qodirova, M. (2022). ZIGMUND FREYD KONFLIKTDAN XIMOYALANISH MEXANIZMLARI HAQIDA. *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*, 2(12), 159-164.
- 11.Malikaxon Qaxramonovna, Q. (2022). TAFAKKURINING RIVOJLANISHIDA MULOQOTNING O'RNI VA AHAMIYATI. *Scientific Impulse*, 1(3), 665–669. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/1105>
- 12.Qodirova Malika, & Imomqulova Fotima. (2022). CAUSES OF DISPUTES BETWEEN PARENTS IN FAMILY. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(02), 675–678. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/HAB4U>
- 13.Кодирова Малика Кахрамоновна РОЛЬ ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ В ФОРМИРОВАНИИ И РАЗВИТИИ ПОЗНАНИЯ У ДЕТЕЙ 6-7 ЛЕТ // Евразийский Союз Ученых. 2020. №10-1 (79). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-poznavatelnyh-protsessov-v-formirovanii-i-razviti-poznaniya-u-detey-6-7-let> (дата обращения: 30.04.2023).
- 14.Qodirova, Malikaxon Qaxramonovna, Nasimov, Doston Sobir O'G'Li MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR IDROKINI IJODIY O'YINLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH // ORIENSS. 2022. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-yoshdagi-bolalar-idrokini-ijodiy-o-yinlar-orqali-rivojlantirish> (дата обращения: 30.04.2023).
- 15.Majidov, Jasur Baxtiyarovich (2022). SOTSIAL INTELLEKT VA UNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (2), 608-613.